Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

ESHITISH SEZGISI MODUSI XUSUSIDA

Mashxuraxon Muhammad qizi Burxanova*
Mustaqil izlanuvchi Farg'ona davlat universiteti Farg'ona, O'zbekiston
✉ mashxuraxonkhakimova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning mutlaqo yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan sezgi a'zolari tili, xususan, eshitish sezgisi modusi idroki hamda uning lisoniy reprezentatsiyasi haqida so'z boradi. Tadqiqotda har qanday til egalari tafakkurida tovush sezgisi idroki bilan vujudga keladigan tushunchalar mavjud bo'lishi, bu tushunchalar olamda ro'y berayotgan voqea yoki hodisalar idroki bilan yuzaga kelishi, inson tafakkuri tovush simvoli va ma'lum hodisa ovoziga nisbatlanuvchi tushunchalar paradigmasini tahlil va umumashtirish asosida shakllantirishi masalalari yoritilgan. Tadqiqotda Eshitish sezgisi orqali qabul qilingan ma'lumotlar, ularni ongda tahlil qilish, umumlashtirish, hosil bo'lgan tovush tushunchalarini muayyan leksemalar bilan nomlanishi badiiy manbalar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar

sezgi a'zolari tili, lingvosensorika, eshitish sezgisi, sezgilar tili modusi, perseptiv leksika, kognitivlik, lisoniy transformatsiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743813

KIRISH

Ma'lumki, sensor lingvistika yo'nalishining taraqqiyoti sezgi a'zolari faoliyati bilan uzviy bog'liq. Inson borliqdagi barhca ro'y berayotgan voqe-hodisalarni o'z tafakkurida aks ettirar ekan, bu mental jarayonda sezgi a'zolarining barchasi ishtirok etadi. Bularning ichida tovush simvolikasiga asoslangan tushunchalar va konseptlar tafakkurning ma'lum bir qismini tashkil qiladi va ular badiiy adabiyotda ijodkorning individual mahorati tufayli lisoniy tasvirlar shaklida namoyon bo'ladi. Eshitish yoki tovush orqali idrok qilish natijasida inson tafakkurida ma'lum bir tushunchalar guruhini shakllantirish va ayni vaqtda shu tushunchalarni ifodalovchi lisoniy vositalar, jumladan, tushunchani nomlovchi konkret leksemalar guruhi bilan bog'liq tadqiqotlar sezgilar tili bilan bog'liq tilshunoslik yo'nalishi haqida tadqiqot olib borishga asos bo'ladi.

Asosiy qism. Bundan tashqari, sezgi tushunchasi bilan bog'liq va lingvosensorika yo'nalishining mavjudligini aks ettiruvchi termin haqiqatan ham lingvistikaga oid terminlar lug'atida bor-yo'qligi haqidagi savolning tug'ilishi tabiiydir. Bu atama lingvistik terminlar lug'atida mavjud va u quyidagi tartibda izohlanadi: "Sensor axborot manbalari. Xabarning bevosita manbalaridan biri bo'lib, unda so'zlashuvchilar muayyan vaziyatni eshitish, hid bilish va boshqa sezgi a'zolari orqali idrok qiladi" [1,486]. Bu ko'chirmada sensor lingvistika mundarijasidan o'rin olgan bahsli bir muammoning ikkinchi talqini ko'zga tashlanadi. Sensor lingvistika yo'nalishida amalga oshirilgan aksariyat tadqiqotlarda sezgi a'zolarining muloqot ishtirokidagi o'rni va roli to'g'risida ikki, uch xil talqin mavjud. Bunday bahsli va munozaraga sabab bo'luvhci talqinlar sensor birliklarning qo'llanish chastotasi bilan bog'liq statistikasida ham ko'zga tashlanadi. Shuningdek, sensor lingvistika masalalariga bag'ishlangan aksariyat izlanishlarda vizual idrok modusi bilan bog'liq tushunchalarning shakllanishi boshqa sezgilarga nisbatan yetakchilik qiladi, degan qarashlar ko'proqdir. Yuqoridagi T.V.Jerebiloning "Lingvistik terminlar lug'ati" da sensor axborot manbalari atamasining ta'rifida eshitish, tovush simvolikasi va hid idroki bilan bog'liq sezgi a'zolari birinchi planga olib izohlanadi. Sensor axborot manbalari mazmuni bilan izohlanuvchi ta'rifning boshida tovush va hid sezgisining turishi shu sohadagi har qanday tadqiqotchini

o'ylantiradi. Shu fikrlardan kelib chiqib, eshitish, yana ham aniqroq qilib aytiladigan bo'lsa, tovush simvolikasiga asoslangan idrok modusi, yanada aniqroq aytganda, "слуховой язык" termini ifodalagan tushunchalar sensor lingvistikaning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri bo'la olishini tasdiqlaydi. Lekin o'rtaga tashlanayotgan sezgi a'zolarining ichida qaysi biri yetakchilik qiladi, til egalari olam manzarasi idrokida qaysi sezgi a'zolaridan ko'proq ma'lumot oladi degan qarashlar va uning javobi qiziqdir. Bu masalada bizning fikrlarimiz quyidagicha: birinchidan, muayyan tilda muloqot qiladigan har qanday til egasi o'zining turmush tarzi davomida orttirgan sezgi tajribalari asosida muloqotga kirishadi. Buni shunday tushunish kerakki, huddi muayyan til egalarining oilaviy yashash muhitida ota-ona, aka-opa va boshqa qarindoshlarning kasb xususiyatidan kelib chiqilsa, ijtimoiy muhit bilan bog'liq u yoki bu kasbga doir leksikoni perseptiv leksika guruhining yetakchilik mezonini belgilaydi. Shundan kelib chiqiladigan bo'lsa, kimyo yoki tibbiyot sohasiga oid tushunchalar ifodasi bo'lgan sezgi a'zolariga taalluqli perseptiv leksika yetakchi o'rinni egallaydi. Bunday perseptiv muhit idrok leksikasi guruhida dunyoni tovush simvollari bilan ko'rish, borliqni vizual idrok modusi bilan his qilish, olam manzarasini hidlar orqali anglash, borliqda yuz berayotgan yoqimli va yoqimsiz voqealar tasvirini teginish yoki ta'm sezgisi orqali anglash bilan bog'liq perseptiv leksik birliklar qo'llanishi kuzatiladi. Umuman olganda, borliq elementlari haqidagi tushunchalarning sezgi a'zolari kanallaridan kelgan ma'lumotlar orqali hosil bo'lgan tushunchalar, ularning yig'indisi hisoblangan inson tafakkuridagi tushuncha va konseptlar, ayni vaqtda ularning olam manzarasidan olamning lisoniy manzarasiga o'tish jarayonlari sensor lingvistika, kognitiv tilshunoslik va mentalingvistika kabi turdosh va yondosh sohalarning konseptual asosi bilan o'rganiluvchi umumiy masalalaridir. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, sezgi, tushuncha, konsept va perseptiv leksika sezgilar faoliyati asosiga qurilgan va shu tajribalar orqali orttirilgan bilim va ko'nikmalarning o'zaro uzviy bog'liqligidan iboratdir. Sensor tajribalar negizida hosil qilingan bilim va ko'nikmalar shu a'zolar vositasida hosil qilingan perseptiv leksik birliklar ifodalagan ma'nolarni o'rganishda qo'l keladi.

Ikkinchidan, badiiy adabiyotda esa ijodkorning sensor tajribalari benihoya ko'p bo'lib, u bu tajribalar orqali borliqda yuz berayotgan voqealarning lisoniy tasviriga badiiy obrazlilik bo'yog'ini mohirona kirita oladi. Sezgilar faoliyatiga asoslangan badiiy idrok modusi muallifning individual uslubini belgilaydi. Adib ijodida sezgilar mohiyatiga qurilgan badiiy tasvir obrazli idrokning betakror namunasiga ko'tarila oladi. T.V.Jerebiloning lingvistik terminlar lug'atidagi sensor axborot manbalariga berilgan ta'rif tovush sezgisi bilan bog'liq tushuncha va ularning ifodasi hisoblangan perseptiv nomlar sof ma'nodagi tadqiqot obyekti, ayni paytda, tovushga asoslangan eshitish ma'nosi bilan shakllangan tushuncha va unga oid idrok leksemalari haqiqatan ham lingvosensorika o'rganadigan masalalardir. Bunday lingvistik asoslar boshqa tilshunoslar qarashlarida ham ko'zga tashlanadi. Bunday ishlarda ta'kidlanishicha, eshitish sezgilari bilan bog'liq tushuncha va leksemalar masalalari tilshunoslikda eng kam o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Bu yo'nalishning asosiy masalalaridan biri tovush sezgisi tajribalari asosida orttirilgan bilim va malakalar bilan bog'liq tushunchalarning konseptuallashtirilishidir. Bizning nazarimizda, keyingi paytlarda an'anaviy metaforadan farqlli tarzda shakllanayotgan kognitiv metaforalar haqidagi tushuncha va qarashlarda konseptual metaforalarga bog'liq muammolar asosiy o'rin egallamoqda. "Audial tajribaga asoslangan konseptual metaforalar tilshunoslik, xususan, lingvosensorikaning tadqiqot obyekti sanaladi "[2, 308]. Inson tafakkurida sezgi a'zolari funksiyalari bilan yuzaga keladigan tushunchalar ham tafakkur mazmunini boyitishga xizmat qiladi. Bu a'zolar ham umumiy bilim fondining shakllanish asosidir. Demak, tinglash, eshitish, muayyan tovushlar idroki tufayli hosil qilingan bilimlar barcha tovushlarning ongda o'zaro differensiatsiyalanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Til egalari tafakkuri har qanday tovushning perseptiv ma'nosini anglay oladi. Chumchuqning chirqillashi ilonning vishillashi, chaqaloqning chinqirishi, xo'rozning qichqirishi, chivinning g'ing'illashi, odamning g'inshishi kabi lug'aviy ma'nolar tovush simvollari orqali inson idrokida modallashadi. Tovushning inson tafakkurida modallashishi bir jihatdan tovush simvoliga asoslangan idrokda uning mohiyatini obyektiv his qiilish va tovush taassuroti asosida hosil qilingan bilimning obyektivligi bilan bog'liq tushunchalarni hosil qilishdir. Buni tovushga asoslangan idrok modusi orqali hosil qilingan tushunchaning mantiqiyligi bilan baholash kerak. Bunda hosil qilingan tushuncha tovush mohiyatini o'zida to'la ma'noda aks ettiradi, bunday idrok mantiqsizlikdan yiroq bo'ladi. Masalan, "chivinday g'inshimoq – chivin g'ing'illaydi, g'inshish odamga xos"(O.Sharafiddinov, Adabiyot tildan boshlanadi). Odamning g'inshishi idrok modalligining diktumga xos qismidir. Tushunchaning aniqligi diktumga

xos idrokdir. Idrok modusi esa hosil qilingan va diktum asosida shakllangan tushunchada muallif munosabatining aks etishi bilan bog'liq. Idrok modalligiga nisbatan bunday terminologik yondashuv til egalari yoki shu tilga mansub shoir va adibning individual uslubi bilan bog'liq. Ijodkor tafakkuri boshqalardan idrok mexanizmlariga ko'ra ham farqlanadi. Perseptiv leksikada kimdir vizual idrok modusi orqali poetik ifoda tasvirini beradi, boshqasi hid yoki ta'm orqali idrok modusini shakllantiradi.yana ba'zilarda idrok modusi barcha sezgilardan qorishiq holda foydalanishi ko'zga tashlanadi. Demak, sezgi a'zolarining badiiy matnda qo'llanishi va faollik darajasi ijodkorning idiostili va uslubiga bog'liqdir.

So'z sezgi a'zolari funksiyalari bilan hosil qilinadigan tushunchalar va ularni nomlovchi idrok leksikasi haqida borganida bevosita metafora bilan bog'liq qarashlar esga keladi. Jumladan, J.Lakoff va M.Jonsonning bu boradagi qarashlarida vizual va audial metaforalarga oid tadqiqotlar to'g'risida so'z boradi. Unda ta'kidlanishicha, vizual metaforalarga oid tadqiqotlar juda ham ko'p, lekin audial metaforalar deyarli o'rganilmagan. Audial metaforalar orqali ham qator tushunchalar konseptuallashtiriladi[1][2, 624]. Inson idroki bilan bog'liq holda sezgi a'zolari bajaradigan vazifalar asosida qabul qilingan ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish orqali yangi tushunchalar hosil qilish mental jarayon deb nomalanadi. Odatda, idrok bilan bog'liq mental jarayonlarda boshqa sezgi a'zolari faoliyati bilan amalga oshirilgan xabarlarni qabul qilish va ularni konkret tushunchalarga aylantirish asosida konseptual struktura hosil qilinadi. Ya'ni idrok orqali qabul qilingan tushunchalar yig'indisi konseptuallashtiriladi. Konseptuallashtirish jarayoni aynan ovoz va tovush bilan bog'liq tushunchalarni leksemalar tarkibiga kiritlishi bilan muhimdir.

XULOSA

Perseptiv leksema semantik strukturasida sezgi a'zolari bilan hosil qilingan tushuncha va leksema tarkibidagi sememalar anglashilib turadi. Misol uchun, sayramoq qushlarga xos, lekin ko'p gapirgan odamga nisbatan bu so'zning ishlatilishi audial metaforani hosil qiladi. Yuqoridagi fikrlar asosida shunday bir ilmiy xulosaga kelish mumkinki, so'zlashuvchilar o'rtasidagi muloqot jarayoni o'ta murakkabligi bilan ajralib turadi. Muloqot faqat lisoniy yoki nolisoiy vositalar bilangina amalga oshmaydi. Muloqot jarayoniga tashqi olam bilan bog'liq subyektiv va obyektiv omillar ham qo'shiladi. Inson ongi ularni shundayligicha o'zlashtiradi. Shuning uchun ham borliqda ro'y berayotgan har bir holatning mental jarayondagi idrok modusi ilmiy til bilan perseptiv modallik deb yuritiladi. Perseptiv modallik degan termin mohiyatida inson ongiga ko'chayotgan olam manzarasi obyektivlik va subyektivlik ma'nisi va mantig'i bilan transformatsiyalanadi. Unda suhbatdoshlar tafakkurida olam manzarasining aks etishi, borliqda yuz berayotgan har bir voqea-hodisaning ikir-chikirigacha bo'lgan jarayonlar ongda olamning konseptual manzarasi sifatida namoyon bo'ladi. Anglashning mohiyati kommunikatsiya aktlari bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов.Назрань: ООО «Пилигрим», 2011. 486 с.

2. Open your eyes: Deaf studies talking. – Minneapolis; L.: Univ. of Minnesota press, 2008. – 308 p.

3. Lakoff G., Johnson M. Philosophy in the flesh: The embodied mind and its challenge to western thought. – N.Y.: Basic Books, 1999. – 624 p.

[1]Lakoff G., Johnson M. Philosophy in the flesh: The embodied mind and its challenge to western thought. – N.Y.: Basic Books, 1999. – 624 p.